

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi: 110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi: 60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti

Chirchiq-2024

Fan/modul kodi O'D 1405 ✓		O'quv yili 2025-2026 ✓	Semestr 4 ✓	ECTS - Kreditlar 5 ✓	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbek dialektologiyasi ✓		60 ✓	90 ✓	150 ✓
2	I. Fanning mazmuni O'quv fanining o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar: “O'zbek dialektologiyasi” fani talabalarni o'zbek shevalarining fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi, so'z yasalihi, sintaksisi bo'yicha nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish, transkripsiya va unda yozish talablarini, ular asosida dialektal matnlar va lug'atlar tuzishning qonuniyatlariga ilmiy, uslubiy yondashish hamda o'z shevalaridan lug'at maqolalar tuzish vazifalarini bajarishga o'rgatadi. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni “O'zbek dialektologiyasi”ning zaruriy ma'lumotlari majmuasi (tushunchalar, tasdiqlar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarni yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirish hamda dialektologiyasining uzviy bog'liqliklarini o'rganishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni mantiqiy fikrlashga, to'g'ri xulosa chiqarishga, “O'zbek dialektologiyasi”ning yechilmay qolgan nazariy va amaliy muammolarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarga “O'zbek dialektologiyasi” nazariyasi hamda amaliyotiga oid bilimlarni berish, olgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay bilishga o'rgatishdan va natijada ularni dialektologiyaga mos jarayonlarning modellarini tuzish va tekshira olishga o'rgatishdir.				
	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Kirish. «O'zbek dialektologiyasi» fanining maqsad va vazifalari “O'zbek dialektologiyasi” fanining “O'zbek tili va adabiyoti” yo'nalishi bo'yicha pedagoglar tayyorlashdagi ahamiyati. “O'zbek dialektologiyasi” kursining turlari, O'zbek shevalari milliy tilning quyi bosqichi, o'zbek tilining asosi ekanligi. Tilshunoslikda sheva, dialekt, lahja terminlari definitsiyasi. O'zbek tilining dialektal tarkibi va ular murakkabligining ijtimoiy va tarixiy interpretatsiyasi. O'zbek diadektologiyasining hozirgi o'zbek adabiy tili, til tarixi, xalq tarixi, geografiya fanlari bilan mujnosabati. 2-mavzu. Transkripsiya Transkripsiya turlari. Fonetik va fonologik transkripsiya. Xalqaro transkripsiya. Translitratsiya. Milliy transkripsiya. Turkiy tillar va lahjalarni				

o'rganishda qo'llaniladigan transkripsion belgilar. O'zbek shevalarini o'rganishda qo'llaniladigan transkripsiyalar. Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvidagi transkripsiyaga xos xususiyatlar.

3-mavzu. O'zbek shevalari tasnifi

O'zbek shevalarini tasniflashda yetakchi tamoyillar; hududiy, etnik, etnogenetik, lisoniy, lisoniy-hududiy (lingvoareal). O'zbek shevalari tasnifi. Ularning yutuq va kamchiliklari.

4-mavzu. O'zbek shevalari fonetikasi

O'zbek shevalarining fonetik xususiyatlari. Shevalar vokalizmi va konsonantizmi. O'zbek shevalaridagi va o'zbek adabiy tilidagi unlilar munosabati. O'zbek shevalaridagi undoshlar tasnifining o'ziga xos jihatlari.

5-mavzu. Fonetik qonuniyatlar

Singarmonizm qonuni va uning turlari. O'zbek shevalaridagi nutq tovushlarining kombinator va pozitsion o'zgarishlari va turlari. Birlamchi, ikkilamchi cho'ziqlik va emfatik (ultra) cho'ziqlik. Monoftong va diftong. Tovush mosligi. Fonetik jarayonlar.

6-mavzu. O'zbek shevalari leksikasi

O'zbek shevalari leksikasi tushunchasiga bo'lgan qarashlar. Shevalarning tarixiy jihatdan leksik qatlamlari. Shevalarning o'z so'zlari. Shevalararo leksik moslik (variant) masalasi. Sheva so'zlari va jargonlar.

7-mavzu. O'zbek shevalari morfologiyasi va sintaksisi

O'zbek shevalarining morfologik xususiyatlari. O'zbek adabiy tilidagi va o'zbek shevalaridagi turlanishning farqi. Grammatik son, kelishik, egalik, shaxs-son, mayl, zamon kategoriyalariga xos shakllar, fe'ning funksional shakllarining shevalardagi o'ziga xosliklari. So'z yasalishi va sintaksis. Shevalarda so'z birikmalari, izofali konstruksiyalar, to'liq va to'liqsiz gaplar, so'z-gaplarning qo'llanish xususiyatlari.

8-mavzu. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining muhim xususiyatlari

Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasiga birlashuvchi dialekt va shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari.

9-mavzu. Qipchoq, o'g'uz lahjalarining muhim xususiyatlari

Qipchoq, o'g'uz lahjasiga birlashuvchi dialekt va shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari.

10-mavzu. Areal lingvistika

Areal lingvistikaning til va shevalarni o'rganish usullari. Dialektal xarita va atlas, uning yaratilish tarixi va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasida areal lingvistikaning vujudga kelishi va rivojlantirilishi.

11-mavzu. Adabiy til va dialekt munosabati

Sheva, milliy til va adabiy til. Badiiy asarlardagi dialektizmlar va ularning turlari. O'zbek dialektologiyasi fanining til va adabiyot o'qituvchilari uchun ahamiyati. Dialektal xato tushunchasi, ularni bartaraf etish yo'li.

12-mavzu. Dialektizmlarning adabiy tilga singish jarayoni

Avtonomiya va geteronomiya. Bir xalq tilining turli davlat hududlarida alohida-alohida mustaqil rivojlanishi, yozuvdagi farqlar, adabiy me'yorlarning

o'ziga xosligi.

13-mavzu. Shevalari morfologiyasi va morfologik tahlil

Shevalarda turlanish va tuslanish. Shevalarda so'z yasalishi va so'z yasalish tahlili.

14-mavzu. Shevalarda turlanish va tuslanish

Shevalar leksikasi, leksik tahlil. Shevalarning leksikografiyasi. Shevalarda so'z yasalishi va so'z yasalish tahlili.

15-mavzu. Shevalarda so'z yasalishi va so'z yasalish tahlili

Shevalar sintaksisi hamda sintaktik tahlil. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining muhim xususiyatlari. Qipchoq lahjasining asosiy xususiyatlari. O'g'uz lahjasining asosiy xususiyatlari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Sheva, dialekt, lahjalarning xususiyatlari, ularni o'rganish metodlari.
2. Transkripsiya. Transkripsiyadagi matnlarni o'qish va yozish.
3. O'zbek shevalarida unlilar va undoshlar tizimi.
4. Fonetik tahlil. Shevalarga oid matnlarning fonetik xususiyatlari.
5. Fonetik tahlil. O'zbek shevalarida uchraydigan fonetik qonunivatlarda ustida ishlash.
6. Leksik tahlil. Shevalarga xos matnlarning leksik xususiyatlari.
7. Shevalarga xos so'zlarni mavzuviy guruhlariga bo'lib o'rganish.
8. Shevalarda mustaqil va yordamchi so'z turkumlarining o'ziga xosliklari.
9. O'zbek shevalarida fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari.
10. Qarluq lahjasidagi matnlar tahlili.
11. Qipchoq va o'g'uz lahjalaridagi matnlar tahlili.
12. Shevalarida so'z yasalishi va so'z yasalish tahlili.
13. Badiiy asarlarda dialektizmlar va ularning turlari
14. Shevalarning o'rganilishi tarixi va dialektal matn ustida ishlash
15. Dialektal leksikografiya. Shevalar lug'ati.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ishlar uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbek shevalarining o'rganilish tarixi.
2. Shevalarni tadqiq qilish usullari.
3. O'zbek shevalari tasnifi.

	4. Transkripsiya. Transkripsiya turlarini izohlash va tavsiflash. 5. O'zbek shevalarida undosh va unlilar tasnifi 6. Badiiy asarlarda dialektizmlar va ularning turlari 7. Shevalarga oid matnlarning fonetik xususiyatlari 8. Shevalarga oid matnlarning leksik xususiyatlari 9. Shevalarga oid matnlarning morfologik xususiyatlari 10. Shevalarga oid matnlarning sintaktik xususiyatlari 11. Shevalarida so'z yasalishi va so'z yasash tahlili. 12. Badiiy asarlarda dialektizmlar va ularning turlari 13. Shevalarning o'rganilishi tarixi va dialektal matn ustida ishlash 14. Dialektal leksikografiya. Shevalar lug'ati 15. Shevalarning o'rganilishi tarixi va dialektal matn ustida ishlash 16. Qipchoq, o'g'uz lahjalarining muhim xususiyatlari 17. Shevalararo leksik moslik (variant) masalasi. Sheva so'zlari va jargonlar 18. O'zbek adabiy tilidagi va o'zbek shevalaridagi turlanishning farqi. 19. Shevalarda so'z yasalishi va so'z yasash tahlili. 20. Monoftong va diftong. Tovush mosligi.
3	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - "O'zbek dialektologiyasi" fani bo'yicha mavjud an'anaviy tizimlilikni bilib, bu sohalaridagi yangi yutuq va kashfiyotlarni o'zlashtirishi orqali zarur bilimlarga; - "O'zbek dialektologiyasi" fani bo'yicha mavjud an'anaviy bilimlarni tizimlilik asosida o'zlashtirib, mavjud ikki sohaning erishilgan yangi yutuq va kashfiyotlarni o'zlashtirish hamda o'zlashtirilganlarini darslarda amalda qo'llash ko'nikmalariga; - "O'zbek dialektologiyasi" fani bo'yicha ilmiy maqola, ilmiy ish va monografiyalarni magistrant darajasida tahlil qilishga kirishish, ulardagi yutuq hamda kamchiliklarni ko'rsata bilishi bilan birga o'zi tanlagan sohasi bo'yicha ilmiy maqolalar yozish, ilmiy seminarlarda qatnashish malakalarga va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: -ma'ruzalar; -interfaol keys-stadilar; -seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); -guruhlarda ishlash -taqdimotlarni qilish; -individual loyihalar; -jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: "Nodirabegim", 2021. 21
2. Enazarov T., Karimjonova V. va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012. 21
3. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — 21

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni // Xalq so'zi 2017 yil, 8 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida // Xalq so'zi. 2017 yil, 21 aprel.
4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi. 2019 yil oktyabr.
5. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – T.: "Navro'z", 2016.
6. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
7. Abdullayev F. Xorazm shevalari. - T., 1960.
8. Abdullayev F.A. Dialektal lug'at tuzish printsiplari haqida // O'TA.T., 1966. 2-son. 39-bet.
9. Abdullayev F.A. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi. -T., Fan, 1978.
10. Abdurahmonov D. O'zbek shevalari morfologiyasining o'rganilishi // O'zbek shevalari morfologiyasi. - Toshkent, Fan, 1984. 248-271-betlar.
11. Aliyev A.Yu., Nazarov K.N. O'zbek tilining mahalliy shevalari bo'yicha material to'plovchilar uchun metodik qo'llanma. - Toshkent, 1976.
12. Атлас татарских народных говоров Среднего Поволжья и Приуралья / Под ред. Н. Б. Бургановой, Л. Т. Махмутовой, Ф. С. Баязитовой, Д. Б.
13. Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.

Axborot manbalari

1. <http://www.gov.uz>
2. <http://www.edu.uz>
3. www.pedagog.uz
4. www.cspi.uz
5. www.natlib.uz
6. www.ziynet.uz

7	O'quv dasturi Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2024-yil "<u>29</u>" <u>avgust</u> dagi <u>1</u> sonli yig'ilish bayoni qarori bilan tasdiqlangan.
8	Fan/modul uchun mas'ul: A. Shofqorov - Chirchiq davlat pedagogika universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
9	Taqrizchilar: Sh.M.Yunusova - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Umumiy tilshunoslik" kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. O'R.Saidov - Chirchiq davlat pedagogika universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.